



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Eraliyeva Dilbarxon Ergashaliyevna

Ismoilova Shoxsanamxon Oybek qizi

Namangan viloyati Norin tumani

6-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: kasbiy rivojlanish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, uzluksiz malaka oshirish, kasbiy ehtiyoj, “hayot davomida o‘qish” tamoyili.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

В статье рассматривается важность совершенствования методической подготовки и повышения квалификации учителей начальных классов как научно-педагогическая проблема. Обобщены взгляды зарубежных и отечественных исследователей по теме. Научно обоснованы принципы, теоретические и педагогические аспекты повышения квалификации учителей начальных классов.

Ключевые слова и понятия: профессиональное развитие, саморазвитие, непрерывное обучение, профессиональная потребность, принцип «непрерывное обучение».

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

In the article is discussed the importance of perfection the methodological training and professional development of primary school teachers as a scientific and pedagogical problem. It summarizes the views of international and domestic researchers. The principles, theoretical and pedagogical aspects of professional development of primary school teachers are scientifically based.

Key words and concepts: professional development, self-development, continuous training, professional need, the principle of “lifelong learning”.

Kirish. Mustaqil O’zbekistonimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta’lim to’g’risidagi» Qonun asosida boshlang’ich sinflar uchun har tomonlama yetuk o’qituvchilar tayyorlash va ular malakasini zamon talablari doirasida muntazam oshirish ta’lim tizimini isloq qilishning tarkibiy va uzviy bo’g’ini sifatida davlatning ustivor vazifasi hisoblanadi. Haqiqatan ham ilm-fan va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi oqibatida axborotlar hajmining keskin ortishi ilg’or davlatlar darajasidagi raqobatbardosh va yetuk malakali adrlar tayyorlash masalasi uzlusiz ta’limning asosiy fundamenti isoblangan boshlang’ich ta’lim tizimi uchun yuksak pedagogik-kasbiy mahoratga ega bo’lgan ijodkor o’qituvchilarni tayyorlashni taqozo qiladi. Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan ta’lim islohotlari an’anaviy ta’lim turlaridan farqli o’laroq, yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllanib, rivojlanib borishini ta’minlashga xizmat qiluvchi boshlang’ich ta’lim tizimida o’quv jarayonini tashkil etishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish, kichik maktab yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning pedagogik va psixologik asoslarini optimallashtirishga olib keluvchi ilmiy qarashlar, pedagogik nazariyalar va didaktik materiallar yaratish imkonini beradi. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim konsepsiyasida mutaxassis vazifalari quyidagicha belgilangan: «Mutaxassis o’z faoliyati, sohasidan qat’iy nazar, ijodiy jamolarda ishlay olish qobiliyatiga menejment va marketing sohalarida tayyorgarlikka ega bo’lishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo’jalik, ijtimoiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak». Ushbu fikrlar o’qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir. Chunki jamiyatimizda sodir bo’layotgan tub o’zgarishlar, bozor munosabatlariga



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

kirib borishimiz o'qituvchidan nafaqat kasbiy bilimlarni, balki iqtisodiy, yuridik, texnikaviy bilimlardan ham xabardor bo'lishni taqozo qilmoqda. Shuningdek, bu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchisi xususida alohida to'xtalmoq zarurdir.

Boshlang'ich sinflarda ko'zda tutilgan ta'lim samaradorligi boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida e'tirof etilgan g'oyalar asosida yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llannmalar, metodik tavsiyanomalar, o'quv jarayonini tashkil etishning metod va mexanizmlari, o'qitishning innovation g'oyalari va vositalariga bog'liq, albatta. Lekin bu pedagogik jarayonda yuksak pedagogik malaka va kasbiy bilimga ega, dars mobaynida muammoli vaziyatlarni yarata oladigan va uni yechimi taklif eta oladigan boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd qilish lozim bo'ladi. Yuqori sinf o'qituvchisi tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarning fundamental asoslari va umumiy qonuniyatları, ularni kishilik jamiyatidagi o'rni va hamiyatini tizimli o'rgatishga, bilim berishning differensial jihatlariga ko'proq maqsadni yo'naltirsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik-psixologik bilimlar majmuasi, ta'lim samaradorligini oshirish metodlari, omil va vositalari bilan qurollangan, matematika, ona tili, tabiat, inson va jamiyat ta'lim sohalarining ilmiy- nazariy asoslarini mukammal bilgan holda bolaning yosh (fiziologik va psixologik) xususiyatidan kelib chiqib fanning umumiy jihatlarini o'rgatishga, ya'ni integrativ ta'lim berishga yo'naltiradi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolani o'yin faoliyatidagi elementlarni ta'limiy faoliyatga yo'naltirishni boshqara olish, mas'uliyatni his qilish, ayrim muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qila olish, vaqt ni rejalashtirish, o'quvchilarни istak-xoxishlariga e'tiborli bo'lish, shuningdek ezgulikni qadrlab istiqbolli kelajakni ko'zlash fazilatlarining shakllanishiga mas'ul tarbiyachi hamdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yana bir muhim sifatlaridan biri- ta'limiy faoliyatni boshlang'ich va umumta'lim fanlarining uzviylik jihatlari hamda boshlang'ich ta'lim bosqichi fanlarining o'zaro aloqadorlik tamoyillari asosida tashkil etishidir.

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, bu xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo'yadi. Mazkur vazifalar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. O'qituvchilarning kasbiy-metodik



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzlusiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi. Tadqiqot mavzusining dolzarbliji. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sون Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 6 noyabrdagi qabil qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sон qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyyolilarga bo'lgan hurmate'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'naliishlari belgilab berildi. Bilimga asoslangan iqtisodiyot ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi. Bunda davriy malaka oshirishdan farqli ravishda ijtimoiy va iqtisodiy muvofiqlik imkoniyatiga ega bo'lgan «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida uzlusiz malaka oshirish tizimini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzlusiz kasbiy rivojlantirishning ko'p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan va ta'limning yangi yo'naliishlari o'qituvchini innovatsion metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzlusiz kasbiy rivojlantirish zaruriyatini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzlusiz kasbiy rivojlantirish muammosini ilmiy jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi qaramaqarshiliklar mavjudligi aniqlandi:

- zamonaviy ta'limni innovatsion jarayonlarga yo'naltirish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion o'quv jarayonini amalga oshirishga doir nazariy va uslubiy tayyorgarligi o'rtaida;
- boshlang'ich



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

sinf o'qituvchisini uzlusiz kasbiy rivojlantirish zarurati va mavjud holatda bu jarayonga ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida; ● o'qitishning an'anaviy bilimga asoslangan yondashuvi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzlusiz kasbiy rivojlantirishda kompetentlikka asoslangan, faol va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni talab qiladigan ta'limgagi zamonaviy innovatsion tendensiyalar o'rtasida; ● o'qituvchilarning innovatsion metodik tayyorgarligi sifatini oshirish zaruriyati va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi texnologiyalar va mexanizmni resursli qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi o'rtasida. Yuqorida qayd etilgan obyektiv va subyektiv ziddiyatlar pedagogik hodisaning mohiyatini – boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish uchun pedagogik shartsharoitlarni aniqlashdan iborat bo'lgan tadqiqot muammosini faollashtiradi. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar va mavjud holat tahlilidan ko'rindan, quyidagilar o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o'zini o'zi tahlil qilish va baholash, o'zini o'zi rivojlantirish, uzlusiz malaka oshirish zaruratini keltirib chiqaradi: ● ta'lim sohasida xalqaro tajribalar va qiyosiy tahlil natijalari; ● zamonaviy texnologiyalarning takomillashuvi; ● jamiyat ehtiyoji hamda ta'limga bo'lgan talabning o'sishi; ● jamiyat ehtiyoji va talablari asosida o'qituvchi rolining o'zgarishi; ● DTS va o'quv dasturlarining optimallashtirilishi. Ilmiy muammoning qo'yilishi. Jamiyatdagi globallashuvning keskin o'sib borishi, jahon miqyosida ta'lim tizimidagi islohotlar mazkur jarayonning faol ishtirokchisi va amaliyotga tatbiq etuvchi bo'lgan o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy rivojlantirishni talab etadi. Buning uchun esa, dunyo ilm-fanida o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish orqali ularni kasbiy rivojlantirish bo'yicha pedagog va uslubchi olimlar tomonidan olg'a surilgan ilmiy-nazariy qarashlarni o'rganish lozim. Tadqiqot muammosiga oid olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarni kasbiymetodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish masalalari bo'yicha yurtimiz pedagog olimlaridan Z.Artikbayev malaka oshirish jarayonida maktab matematika o'qituvchilari kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik asoslari, rivojlantiruvchi ta'lim vositasida matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari, N.A.Muslimov bo'lajak kasb ta'limi



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish masalalari, G.E.Karlibayeva bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, I.Y.Raxmonov 16 geometriyani o‘qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi, M.I.Toshpo‘latova bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, T.T.Shaymardonov 18 pedagog kadrlar malakasini oshirish va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etish mazmuni, ko‘rsatkichlari, infratuzilmasi, dasturiy va metodik ta’minoti, axborot resurslarini shakllantirish tizimi, D.O.Ximmataliyev 19 pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Ammo, mazkur tadqiqotlar va boshqa pedagogik psixologik ilmiy tadqiqot ishlarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish ilmiy pedagogik muammo sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Xususan: – ayrim tadqiqotlarda bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish masalalari keng yoritilgan; – o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘lajak mutaxassislar misolida o‘rganilgan; – geometriyani o‘qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi, shuningdek, pedagog kadrlar malakasini oshirish va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etish mazmuni, ko‘rsatkichlari, infratuzilmasi, dasturiy va metodik ta’minoti, axborot resurslarini shakllantirish tizimi, pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan; – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishga doir xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilmagan; – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish muammolari alohida qayd etilmagan; – o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, o‘qituvchilarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish mazmuni, mexanizmi, shart-sharoitlari va metodikasi mazkur tadqiqotlarda yoritilmagan; – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslanmagan. Bu esa o‘z vaqtida o‘qituvchilarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi: ● boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirishga doir tizimli va uzviy amalga oshirish lozim bo‘lgan ustuvor



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

vazifalarni aniqlash va belgilash; ● boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish omillari, o‘qituvchida professionallikni rivojlantirishga doir kasbiy rivojlanishning bosqichlari va darajalarini aniqlash va belgilash. Tadqiqot maqsadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiypedagogik muammo sifatidagi ahamiyatini tadqiq qilish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot metodlari. Yuqorida maqsadga erishish va tegishli vazifalarni bajarish uchun pedagogik kuzatuv (qisqa muddatli), pedagogik monitoring, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining malakasini oshirish kurs tinglovchilari bilan suhbat usullaridan foydalanildi. Asosiy natijalar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo‘ylgan maqsad bo‘lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, har bir o‘qituvchi o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish uchun ma’lum darajada o‘z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi. O‘qituvchilarda o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish yo‘nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish va o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o‘qituvchilarda o‘z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishga qiziqish shakllanadi, bu o‘z navbatida o‘qituvchilarda mustaqil ta’lim olish ya’ni mustaqil o‘rganish, o‘zo‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga, bu orqali o‘qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarni o‘z faoliyatida ma’lum bir ijobiy natijalarga erishish, o‘qituvchilar jamoasida obru-e’tibor qozonish, o‘zini o‘zi boshqarish va rivojlantirish kabi ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lib, bu ma’lum bir vazifani mas’uliyat bilan bajarish orqali ko‘zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi – o‘qituvchini o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish ehtiyoji hisoblanadi. Akmeologik



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

yondashuv nuqtai nazaridan o‘zo‘zini anglash, o‘zini takomillashtirish, ichki resurslarni boyitish va qiyinchiliklarni ongli ravishda yengib o‘tish qobiliyati (tashqi va ichki) o‘qituvchi shaxsining rivojlanish modellari va xususiyatlari sifatida ajralib turadi. Shunday qilib, shaxsiy rivojlanishning yetakchi va hal qiluvchi omili shaxsning ijodiy tashabbusi va mustaqilligi bo‘lib, bunda asosiy rol o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun motivga egaligi hisoblanadi. Shaxsni takomillashtirish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishida o‘zini o‘zi anglash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilarning o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish uchun o‘qituvchiga xos bo‘lgan akmeologik pozitsiyaning mavjudligi (uning shaxsiy faoliyati), moslashuvchanlik (atrofdagi voqelik shartlaridan shaxsiy rivojlanish uchun foydalanish qobiliyati), jamiyatda o‘z salohiyatini amalga oshirish istagi, o‘zini anglashi va shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish orqali o‘z kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirishga tayyorligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kasbiy faoliyat subyekti sifatida rivojlanishda subyektivlik, mutaxassisning malakasi va uning shaxsiy yetukligi kabi tendensiyalar ajralib turadi. O‘qituvchi professionallikni rivojlantirishga kasbiy rivojlanishning bosqichlari va darajasini (o‘z taqdirini o‘zi belgilash, moslashtirish, o‘zini namoyon qilish, o‘zini o‘zi anglash) egallah orqali erishadi. O‘qituvchilarga kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishda tashqi va ichki sharoitlar ta’sir qiladi (o‘qituvchining o‘zi qobiliyatlari va moyilligi, atrof-muhitning xususiyatlari – oilaviy, kasbiy, o‘zini anglash xususiyatlari va aks etuvchi kompetensiya). Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni tizimli va uzviy amalga oshirishlari muhim hisoblanadi: – o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilish; – hayotiy va kasbiy tajribalarni o‘zlashtirishga intilish; – ta’lim berish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo‘lish; – kasbiy faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va o‘qitish jarayonini takomillashtirish uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etish. Asosiysi, o‘qituvchini uzlusiz kasbiy rivojlantirish va shu asosda uning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirishga erishish mumkin. O‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj, bir tomonidan, o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati, uning ijtimoiy roli, ikkinchi tomonidan, pedagogik faoliyatning doimiy o‘zgarib turadigan sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan “hayot davomida o‘qish” tamoyili bilan belgilanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

uzluksizlik, universallik, maqsadga muvofiqlik, integrativlik, umumiylilik, individuallashtirish, o‘zaro bog‘liqlik va doimiylik, past darajadan yuqori darajaga o‘tishning doimiyligi, o‘zgaruvchanlik kabi tamoyillarga asoslanadi. Xulosalar. Jamiatning ehtiyojlari, fan va amaliyotning rivojlanishi, inson shaxsini rivojlantirishga tobora ortib borayotgan talablar, o‘zgaruvchan ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarga tez va adekvat javob berish qobiliyati, o‘z faoliyatini qayta qurishga tayyorligi va yangi, yanada murakkab muammolarni mohirona hal qilishga tayyorligi bilan belgilanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirishning ma’nosи bilim faoliyati qoniqishida, o‘qituvchining ortib borayotgan ehtiyojida, uzluksiz ta’lim orqali o‘zini o‘zi anglashda namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini rivojlantirishning mohiyati aqliy mehnatning texnikasi va madaniyatini, muammolarni bartaraf etish, mustaqil ravishda o‘z ustida ishlash, shu jumladan kasbiy mahoratni o‘zlashtirishdir. O‘rganilgan ilmiy tadqiqot natijalari va tahlillari hamda kuzatishlarimiz natijasida, malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarda kasbiy rivojlanishning quyidagi komponentlarining rivojlanishini inobatga olish lozim degan xulosaga keldik: – pedagogik faoliyatdagi boshqaruvchanlik, texnologik usul va uslublarni ishlab chiqish; – pedagogik faoliyatning har bir aniq turini loyihalash, tashkillashtirish va amalga oshirish; – o‘qitish jarayoniga mantiqiy yakunlangan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish; – pedagogik masalalarni ilgari surishda o‘quvchilarning ta’limiy ehtiyojlari va bilim darajasini hisobga olish; – o‘quvchilarning faoliyati natijalarini baholash va hisobga olish; – o‘quvchining motivatsiyasini rivojlantirish; – o‘quvchi bilan ta’lim jarayonida o‘zaro munosabatlarni shakllantirish; – o‘quvchilarning ta’limiy ehtiyojlarini va jamiatning talablarini ko‘ra bilish; – kasbiy kompetensianing shakllanish istiqbolini belgilash va uni amalga oshirish; – o‘quvchining samarali ta’lim olishi va natijaga erishishi uchun metodik tizim yaratish; – o‘quvchilarning xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarligining metodik tizimini yaratish va amaliyotga tatbiq etish. Takliflar. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish jarayonini isloh qilish bo‘yicha quyidagilar taklif etiladi:

- o‘qituvchilarni faoliyat olib borayotgan maktablarining rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib, ularning malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlari asosida maqsadli va muammoli kurslarning dasturlarini ishlab chiqish;
- bolalarning individual tipologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, bilim o‘zlashtirishga oid



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

motivatsiyasini uyg‘otish, o‘quv faoliyati va bilish darajasini rivojlantirishga doir akmemashg‘ulotlarni tashkil etish; • o‘qituvchilarni o‘qitish jarayonini yangi avlod standarti talablariga muvofiq tashkil etishini ta’minlashga doir psixologik treninglar o‘tkazish; • o‘qituvchilarning xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan tadqiqot talablari asosida topshiriqlar ishlab chiqishga mo‘ljallangan amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Adabiyot ro‘yxati:

1. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: Дисс....канд. пед. наук. - С.: 2004. - 190 с.
2. Абрамян Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информационной среде: автореф. дисс. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2001. - 39 с.
3. Ангеловски К. Учителя и инновации. Книга для учителя. –М.: Просвещение, 1991, -С.159.
4. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: дисс....канд. пед. наук. – С.: 2004. - 190 с.
5. Бадагуева О.Р. Формирование готовности будущего учителя к инновационной деятельности в условиях педагогического колледжа: автореф. ... дисс. пед. наук. – Улан-Удэ, 2006. -24 с.
6. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o‘qituvchilarining kasbiy-metodik ko‘nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. ... diss. – Т.: 2004. - 163 b.